

32-dars

Darsning mavzusi: Gapning bosh bo'laklari (96 – 99-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: gapning bosh bo'laklari, ularning so'rog'i, gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash; mashq va topshiriqlardagi terma gap va matnlarni tinglab tushuna olish, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, kesim gapning markazi ekanini, eganing kesim bilan munosabati va so'roqlarini bilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni tabiatni sevish va ardoqlash ruhida tarbiyalash, bilimli va tirishqoqlik ruhini singdirish; milliy qadriyatlarni bilish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini farqlash ko'nikmalarini takomillashtirish; talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi; bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish; axborot manbalaridan va darslikdan tashqari (kitob, lug'at) manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish va foydalanish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, analiz, "Kim ko'p so'z biladi?" o'yini, ko'rgazmalilik.

Darsning jihozi: multimedia ilovalari, tarqatma materiallar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Yolg'onchining yonidan o'tma,

Rostgo'yning yonidan ketma.

Uyga berilgan 95-mashq og'zaki tekshiriladi. She'r mazmuni o'quvchilardan so'raladi. Kitob haqida qanday maqollar bilishlari haqida so'raladi va mustahkamlanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Darslikda berilgan 96-mashq ustida ishlanadi. O'quvchilarga o'qitiladi. Berilgan gaplarning har biriga so'roq berish orqali ega va kesim aniqlanadi.

Qoida taqdimot yordamida tushuntiriladi.

Gapning asosiy mazmunini tashkil etgan gap bo'laklari **bosh bo'laklardir**. Asosiy mazmunni to'ldirish uchun xizmat qiladigan bo'laklar **ikkinchi darajali bo'laklardir**.

Masalan: *Bilimli bola charchashni bilmaydi.*
Bola, bilmaydi – bosh bo‘laklar; bilimli, charchashni – ikkinchi darajali bo‘laklar.

Dam olish daqiqasi.

Oyog‘miz taq-taq-taq,
Qo‘llarimiz chapak-chapak,
Boshimiz charak-charak.
Qo‘limizni ko‘tardik,
Sekingina tushirdik.
Endi ehtiyot bo‘lib
Joyimizda o‘tirdik.

IV. Mustahkamlash.

Darslikda berilgan 97-mashq yozma bajariladi. Berilgan maqollarning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini ajratib, alohida yozing.

Shirin so‘zga quloq charchamas. Quloq-ega, charchamas-kesim Dangasaga ostona ham tepa bo‘lib ko‘rinar. Ostona - ega, tepa bo‘lib ko‘rinar-kesim

“Kim ko‘p so‘z biladi?” o‘yini. *Buning uchun o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi. 1-guruh o‘quvchilari kim?, nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni topadidilar, 2-guruh esa nima qildi?, nima qilyapti? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlar topadilar. Har bir guruhning qancha so‘z topganligi hisoblanadi va ko‘p so‘z topgan guruh g‘olib bo‘ladi.*

98-mashq shartiga ko‘ra bajariladi. Berilgan matn o‘quvchilarga o‘qitiladi. Savol va topshiriqlar ustida ishlaanadi.

- 1. Qaysi so‘zlar gapning asosiy mazmunini bildiriyapti?*
- 2. Qaysi so‘zlar gapning asosiy mazmunini to‘ldirishga xizmat qilyapti?*
- 3. Har bir gapdagi so‘zlarni namunadagidek tahlil qilib, o‘rganib chiqing va daftaringizga yozing.*

Namuna: *bola, o‘qidi – gapning asosi; yillar o‘tib o‘sha juldurvoqi kiyimli (bola), yaxshi (o‘qidi) – asosiy mazmunni to‘ldirgan so‘zlar.*

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o‘quvchilar bugungi darsda o‘zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So‘ngra dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

99-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta’kidlanadi.